



O'zbek tilida to'ldiruvchining nutqiy voqealanishi

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Ahrorova Ziyoda Karimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya
fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilida mavjud bo'lgan to'ldiruvchining nutqiy voqealanishi mavzusiga oid ma'lumotlar batafsil bayon etilgan bo'lib, unda to'ldiruvchining voqealishi qay darajada muhimligi ko'rsatilgan va ushbu mavzu yuzasidan eng kerakli ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: to'ldiruvchi, nutq, kelishiklar, ko'makchilar, vositali to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi.

KIRISH

Tahlilga jalb qilingan 165 jumlanining 51 tasi tarkibida to'ldiruvchi qatnashmagan; bulardan 20-misolda kesim fe'l bilan, 31 misolda ism bilan ifodalangan. 15-misolda kesim



chiq-, to'xta-, yon-, charcha-, terla-, kuchay-, kabi to'ldiruvchini boshqarmaydigan o'timsiz fe'l leksema bilan ifodalangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ikki misolda vositali to'ldiruvchini boshqara oladigan fe'l leksema qatnashgan, lekin boshqarish xususiyati voqealanmay qolgan: Olimjon nima qilib berardi (O'tkir Hoshimov). Hech nima qilmaydi (O'tkir Hoshimov): kimga?

Vositasiz to'ldiruvchini boshqaradigan fe'l leksema o'zlik shakli yasalishi bilan bunday to'ldiruvchini boshqarish xususiyati yo'qolgan: Tamba surildi (O'tkir Hoshimov). Shoqosim bo'g'ildi (Oybek).

Bir misolda (dialogik nutq parchasida) o'timli fe'l leksemaning vositasiz to'ldiruvchini boshqarish xususiyati voqealanmay qolgan: "Hamma narsaga razm solib, kovlab yurasan-a, pismiql! – j e r k i b t a s h l a d i Nuri (Oybek). To'ldiruvchini boshqarish xususiyati avvalo fe'l leksemaning o'timli (o'timlilashgan) yoki o'timsiz (o'timsizlashgan) ekaniga bog'liq. Vositali to'ldiruvchini asosan fe'l leksema, qisman ism leksema boshqargan.¹

To'ldiruvchi o'z hokim so'zga odatda boshqaruv yo'li bilan bog'lanadigan ikkinchi darajali bo'laklar: to'ldiruvchining kesim bilan bo'lgan asosiy sintaktik munosabati boshqaruvdir.

¹Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent: Universitet. 2006



To'ldiruvchi odatda kesimdan anglashilgan harakat, belgi o'ziga yo'nalgan, o'tgan (shu harakatni o'ziga qabul qilingan) yo shu harakatga qandaydir yo'l bilan bog'langan predmetni ko'rsatadi. Demak, to'ldiruvchi ham predmetni ifodalovchi bo'lakdir. Bu jihatdan uning ega bilan o'xshashligi bor; biroq ega hokim holatdagi predmetni, to'ldiruvchi esa tobe holatdagi predmetni bildiradi.

Bu hokim-tobelik ularning grammatik ifodalinishida ham o'z ayrimligini ko'rsatib turadi. Ega bosh kelishikdagi so'z bo'ldi, bu uning hokimligini bildiruvchi grammatik ko'rsatkichdir. To'ldiruvchi vosita kelishiklaridan biri (qaratqich kelishigi bundan mustasno) bilan yo ko'makchilar bilan keladi, bular uning tobeligini ko'rsatuvchi belgidir. To'ldiruvchining qanday formada kelishi boshqaruvchi so'zga bog'liqdir: boshqaruv aloqasining xususiyati shundan iboratdir.

Anglashiladiki, subekt ba predikat aloqasida subektning harakatiga qandaydir yo'l bilan bog'langan predmetni-obektni ifodalovchi bo'lak to'ldiruvchidir. To'ldiruvchi hokim holatdagi predmetning harakat yo holatining vujudga kelishida ishtirok etuvchi ikkinchi bir predmetni, tobe holatdagi predmetni bildiradi. Masalan: Biz paxtani mashina bilan teramiz gapini olaylik. Bunda: terim ishining bo'lishi uchun dastlab bajaruvchi lozim. Bu bajaruvchi bizdir, shunga ko'ra u hokim holatdagi predmetdir. Terish o'tuvchi harakatni anglatganligidan, bu o'tish harakatiga mo'ljallangan predmet – obyekt paxtadir. Bu harakatning o'tishining vujudga chiqishida vosita bo'lgan predmet mashinadir. Demak, paxta mashina bo'laklari to'ldiruvchidir. Bu bo'laklar kesimni to'ldiradi, unga aniqlik, to'lalilik kiritadi. Bular bo'lmasa, fikr aniq, to'la anglashilmay ham qolishi mumkin. Masalan: Kolxozchilar yerni o'g'it bilan kuchaytiradilar gapidagi to'ldiruvchilar (yerni, o'g'it bilan) bo'lmaganda, kolxozchilar kuchaytiradilar parchasigina qolib, fikr to'liqlik bo'lmaydi: nimani kuchaytirganliklari, nima vositasi bilan kuchaytirganliklari anglashilmaydi. Ba'zi gaplarda to'ldiruvchi bo'lmasa ham uning mazmuni ergash gap orqali belgilangan bo'ladi.



(To'ldiruvchi ergash gap) Masalan: Men qo'rqdimki, bo'ri emaklab kelyapti. (<<Cho'ponning hikoyasi>>, ocherk.) Bu qo'shma gapning sodda gap formasidagi sintaktik sinonimikasi to'ldiruvchini aniq ko'rsatib beradi: Men ko'rdimku, bo'ri emaklab kelayapti. (Nimani ko'rdim?) – Men bo'rining emaklab kelayotganini ko'rdim.²

Fe'l bilan ifodalangan, ba'zan fe'ldan boshqa ayrim so'zlar bilan ifodalangan bo'lakka boshqaruv yo'li bilan bog'lanib, uning ma'nosini to'ldirib keladigan ikkinchi darajali bo'lak to'ldiruvchi deyiladi

To'ldiruvchi boshqaruvchi so'zning talabiga ko'ra kelishik affikslari (qaratqich kelishigidan tashqari) yoki ko'makchilar orqali shakllanadi. Masalan: Aql va idrok quyoshga o'xshaydi, ular dog'larni bekitadi. ("Oz-oz o'rganib dono bo'lur"). To'g'rilik bilan xiyonat, yolg'onchilik bilan diyonat chiqisha olmaydi. ("Oz-oz o'rganib dono bo'lur"). To'ldiruvchi o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan (fe'l, sifat, ravish, ot, modal so'z bilan)" to'ldiruvchi-to'ldirilmish" sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi. To'ldiruvchi ifoda materialiga ko'ra egaga hamda qaratuvchiga o'xshaydi, faqat grammatik shakl jihatidan ulardan farq qiladi.³ To'ldiruvchi ham nutqiy gap qurilishida so'z kengaytiruvchisi sifatida ishtirok etadi va fe'l bilan ifodalangan har qanday bo'lak yoki bo'lak qismining ma'noviy valetligini to'ldiradi. To'ldiruvchi faqat kesimgagina bog'lanmaydi. Quyidagi gaplarga diqqat qiling: 1. Kitobni olib kel. 2. Kitobni olib kelishni unutma. 3. Kitobni keltirish sening vazifang. 4. Kitobni tushunishning yaxshi tomonlari ko'p.

² G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'qituvchi, Toshkent 1966



To'ldiruvchi birinchi gapda kesimga (olib kel), ikkinchi gapda to'ldiruvchiga (olib kelishni), uchinchi gapda egaga (keltirish), to'rtinchi gapda aniqllovchiga (tushunishning) bog'langan.³

XULOSA

Xulosa qilsak, to'ldiruvchi(tilshunoslikda)-gapning ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalanadigan, harakatning ob'yekti bo'lgan predmetni ko'rsatib,asosan kesimga bog'lanadigan bo'lagi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov.G', Sulaymonov A, Xoliyorov H, Omonturdiyev J, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent:O'qituvchi, 1979.
2. Turkiston SSR fanlar akademiyasi Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent: "Fan",1966. 82-95-betlar.
3. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva H, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent -2010.

³Hamroyev M., Muhammedova D., Shodmonqulova D.,G'ulomovaX.,Yo'ldosheva Sh. Ona tili, Toshkent: Iqtisod-Moliya,2007